

## KRAUDFANDING TEKNOLOGIYASI ORQALI INTELLYEKTUAL MULK OB'EKLALARINI TIJORATLASHTIRISH

**Sunnatov Muxtor Ne'matovich**

E-mail: [muxtor.sunnatov@mail.ru](mailto:muxtor.sunnatov@mail.ru)

*Kadrlar malakasini oshirish va statistik  
tadqiqotlar instituti dotsenti, (PhD).*

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat, san'at sohalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2.4. bobida "Raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida - Raqamli texnologiyalar milliy bozori uchun qulay muhitni yaratish va istiqbolli "raqamli" startaplarni rivojlantirish" maqsadida tadbirlar amalga oshirilishi begilab qo'yilgan [1].

IT-park ("Information Technology") asosida ilg'or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn, kraudfanding va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun «aqli yechimlar» ni ishlab chiqishni rag'batlantirish masallariga alohida e'tibor berib o'tilgan.

Milliy iqtisodiyotning o'sishini va mamlakatning global dunyodagi ta'sirini belgilashda raqamli infratuzilmalarning o'rni muhim sanaladi. Jadal rivojlanayotgan va zamonaviy dunyoda Internet tarmog'i orqali mablag' to'plash loyihalarni moliyalashtirishning muqobil va istiqbolli sxemasiga aylanib bormoqda [2]. Xususan, axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni kraudfanding platformasi orqali joylashtirish va moliyalashtirish mexanizmi. Ushbu sxema yosh tadbirkorlar va startaplarga investitsiyalarni

jalb etish hamda moliyalashtirish manbalarini topish imkoniyatini yaratib beradi.

Kraudfanding texnologiyasi loyihani amalga oshirish uchun keng doiradagi odamlarning mablag‘larini jalb qilishga asoslangan. Internet aloqalari bunday kraudfandingni tashkil qilish uchun ideal platforma ekanligini isbotladi. Kraudfandingning birinchi muvaffaqiyatli namunalari musiqa industriyasida bo‘lgan, u yerda muxlislar sevimli san’atkorlarining yangi treklarini chiqarish uchun pul yig‘ishgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu sohani rivojlanishining 4 ta modeli mavjud [3]:

Birinchisi - Anglo-sakson modeli. Kraudfanding mexanizm sifatida ishbilarmonlik muhitiga me’yoriy ravishda kiritilgan va turli ixtisosliklarga ega bo‘lgan modeldir (kredit, kriptovalyuta kraudfanding, musiqa va ilmiy loyihalarni rivojlantirish platformalari mavjud).

Ikkinchisi - Yevropa modeli. U kraudfandingni rivojlantirish yo‘nalishini belgilovchi milliy qonunchilikning mavjudligi bilan ajralib turadi (Avstriya, Italiya, Germaniya, Frantsiya). Asosan, ijtimoiy va gumanitar sohalarni moliyalashtirishga qaratilgan (arxeologiya va ekologik tadqiqotlar, ijtimoiy kam ta’minlagan oilalarga kredit berish).

Yevropada kraudfanding rivojlanishiga hissa qo‘shadigan asosiy omillar quyidagicha: a) davlatning normativ-huquqiy yordami; b) progressiv tartibga solish va imtiyozli soliq rejimi; c) yetakchi kraudfanding platformalarining xalqaro faoliyati.

Uchinchisi - Osiyo modeli. Bu model yirik korporatsiyalar tomonidan kraudfanding bozorining monopolashuvi va uning ijtimoiy-madaniy yo‘nalishi bilan tavsiflanadi. Osiyo mintaqasida Xitoy ko‘p sonli loyihalar


tufayli yetakchi hisoblanadi. Xitoy Elektoron tijorat tadqiqot markazi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 230 dan ortiq kraudfanding platformalari faoliyat ko'rsatmoqda. Jahon banki prognozlariga ko'ra, 2025 yilda borib Xitoyda kraudfanding loyihalari hajmi 46-50 milliard dollarga yetishi mumkin. Bu bozor segmenti Yaponiya, Janubiy Koreya, Tailand, Singapur va Malayziyada ham rivojlangan.

To'rtinchisi – Sharqiy Yevropa modeli. Ushbu modelning xususiyatlari: a) tartibga solishning yo'qligi; b) kam sonli saytlar; v) potentsial investorlarning yetarli darajada xabardorligi; g) infratuzilmaning yetishmasligi.

Dunyoda kraudfandingning o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 16 foizga o'sishi va 2025 yilda ularning umumiyligi hajmi 28,8 milliard dollarni tashkil etishi kutilmoqda.

Kraudfandingning soddaligi va samaradorligi ushbu texnologiyaning boshqa tarmoqlarda, jumladan, startaplarni moliyalashtirishda keng qo'llanilishiga turki bo'ldi. Bugungi kunga kelib, kraudfanding tufayli Oculus Rift virtual reallik dubulg'asi, birinchi Bluetooth dinamiklari, Pebble aqlli soatlari kabi bir qator yirik va muvaffaqiyatli tijorat loyihalari paydo bo'ldi [4].

Kichik va o'rta biznes uchun kraudfanding venchur kapital fondlari yoki farishta investorlari mablag'larini jalb qilishning haqiqiy alternativiga aylanmoqda. 2020 yilda mablag' yig'ish bo'yicha yetakchilar - oziq-ovqat va ichimliklar, tibbiyot, sog'liq va go'zallik kabi sohalar bo'ldi 1-rasm.



**1-rasm. Startaplar uchun kraufdanding orqali yig'ilgan mablag'lardan foydalanishning asosiy yshnalishlari<sup>1</sup>**

Kraufdanding sizga kerakli pulni yig'ish imkonini beruvchi hamda loyihaga kirishni istagan investorlarni jalg qiluvchi mexanizm bo'lib, g'oya mualliflarini qo'llab-quvvatlash uchun ixtiyoriy ravishda pul yoki boshqa resurslarni birlashtiradi. Jahon amaliyoи kraufdandingni rivojlantirish muhimligini ko'rsatib, kichik va o'rta biznesda innovatsion loyihalarga investitsiyalarni jalg qilishni ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Kraufdandingning tobora ommalashib borishi oddiyligi bilan bog'liq, agar davlat investitsiyalari va bank kreditlari bilan solishtirganda mablag' yig'ish tezligidadir [5].

MDH mamlakatlariidan Rossiya, Belarusiya va Qozog'istonda kraufdanding loyihalari nisbatan faol rivojlanmoqda. Rossiyada 2018 yilda umumiy bozor hajmi 218,5 million dollarni tashkil edi (2015 yilga nisbatan u o'n barobarga oshgan). Rossiya bozorida asosiy o'yinchilar Boomstarter va

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzildi

Planeta kraufdanding platformalari bo‘lib, ular bozor aylanmasining 75-80 foizini tashkil eadi.

Dunyo kraufdanding bozorida loyihalarni moliyalashtirishning ikkita modeli, pulsiz va pulli qo‘rinishda bo‘lib, xayriya, klassik, aktsiyanerlik va kredit turlari bo‘yicha tavsiflanadi (1-jadval).

### **1-jadval.**

#### **Kraufdanding turlarining xususiyatlari<sup>2</sup>**

<b>Kraufdanding turi</b>	<b>Loyihalarga quyilmalar shakli</b>	<b>Qaytarilish shakli</b>	<b>Investorga motivatsiya</b>	<b>Xalqaro platformalar</b>
<b>1. Moliyalashtirishning pulsiz modeli</b>				
Xayriya (fidoyi)	Ehson	Nomoddiy ne’mat	Shaxsiy va ijtimoiy motivatsiya	GoFundMe Pomogi.org Tugeza.ru <b>Halfana.uz</b>
Klassik (bonus)	Ehson	Materil va nomoddiy ne’mat	Shaxsiy yoki ijtimoiy motivatsiya kombinatsiyasi hamda har qanday mukofotga intilish	Kickstarter Indiegogo Rockethub Boomstarter Planeta.ru
<b>2. Moliyalashtirishning pulli modeli</b>				
Aktsiyanerlik (kraudinvest)	Investitsiya	Kapital quyilmadan daromad	Shaxsiy, ijtimoiy yoki moliyaviy kombinatsiyalashgan motivatsiya	Seedrs Crowdcube AngelList StartTrack Jumpstartupper
Kredit (uzoq muddatli, kraudlending, p2p-kreditlash)	Kredit (ssuda, qarz)	Qarzdan olingan daromad	Shaxsiy, ijtimoiy yoki moliyaviy kombinatsiyalashgan motivatsiya	Lending Club Prosper.com Webmoney Vdolg.ru

Kraufdandingni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari va rivojlanish tendensiyalari:

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzildi

- ✓ Nodavlat notijorat tashkilotlarining xayriya faoliyati: davolanish uchun o‘z mablag‘lari yetarli bo‘lmagan odamlarga yordam berish, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish va boshqalar.
- ✓ Kraudfanding mexanizmlari orqali startaplarga investitsiyalarni jalb qilish;
- ✓ Blokcheyn texnologiyalarini joriy etish: mablag‘larni yig‘ish va ulardan foydalanish jarayonini yanada shaffof, manipulyatsiyadan himoyalangan qilish imkonini beradi;
- ✓ Ko‘chmas mulk loyihalarini moliyalashtirish uchun kraudfandingdan foydalanish. Bunday loyihalar, past yoki salbiy bank foiz stavkalari sharoitida, mablag‘larni investitsiya qilish uchun eng jozibador va ishonchli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda, kraudfanding instituti orqali moliyalashtirishni tartibga soluvchi qonunchilik asoslari mavjud emasligini hisobga olib, axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ommaviy moliyalashtrish (kraudfanding) sohasida huquqiy eksperiment yakuniga ko‘ra, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish jarayonida “kraudfanding instituti” imkoniyatidan foydalanish mexanizmini joriy qilish hamda ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqliroqdir.

### **Foydalanilgan adabiyolar ro’yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sон “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyo va elektron hukumatni keng joriy eish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sон qarori

3. Ordanini, A., Miceli, L., Pizzetti, M., Parasuraman, A. Crowd-funding: Transforming customers into investors through innovative service platforms. August 2011. Journal of Service Management 22(4): 443-470 DOI:10.1108/0956423111155079
4. Schwiembacher, A. and Larralde, B. (2012) Crowdfunding of Small Entrepreneurial Ventures. In: Cumming, D., Ed., The Oxford Handbook of Entrepreneurial Finance, Chapter 13, Oxford University Press, Oxford
5. Rubinton, B. Crowdfunding: Disintermediated Investment Banking April 2011, SSRN Electronic Journal/DOI:10.2139/ssrn.1807204